



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 5-dekabr, № 254-255 (9149-9150)

Juma

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## SIRDARYO VILOYATI AHOLISI FAROVONLIGINI YANADA OSHIRISHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-dekabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari safarining birinchi manzili Sirdaryo tumanidagi “River Med Pharm” korxonasi bo'ldi.

Mazkur korxona mamlakatimizda infuzion dori vositalarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan infuzion eritmalarning 20 foizi aynan ushbu korxonaga to'g'ri keladi.

Bunday dori vositalari bemor hayoti uchun eng muhim tibbiy mahsulotlardan biri sanaladi. Ularni tayyorlash oddiy tabletkalar ishlab chiqarishdan ancha murakkab. Chunki bu turdagi eritmalar to'g'ridan-to'g'ri qon tomirlariga yuboriladi. Demak, ular mutlaq steril sharoitda, yuqori aniqlik va xalqaro standartlarga to'liq javob bergan holda ishlab chiqarilishi shart.

Loyihaning umumiy qiymati 30 million dollardan ortiq bo'lib, hozirgi kunda korxonada 750 nafar odam doimiy ish bilan ta'minlangan. Korxona yiliga 135 milliard so'mlik qiymatda 70 turdagi, umumiy hisobda 114 million dona dori vositalarini ishlab chiqarmoqda. Mahsulotlarning 20 foizi eksport qilinayotgani korxonaning xalqaro raqobatbardoshligini ko'rsatadi.

Noyabr oyida loyihaning ikkinchi bosqichi ishga tushirilib, ishlab chiqarish quvvatlari yanada kengaytirildi. Korxona 30 million dona infuzion eritma, 70 million donadan ortiq quruq

antibiotiklar va qariyb 20 million dona ko'z-burun tomchilarini ishlab chiqaradi.

Davlatimiz rahbariga korxona mahsulotlari va navbatdagi rejalari haqida ma'lumot berildi.

Kelgusida korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot turlari 200 xilga yetkaziladi. Bu bosqichda shisha va plastik idishlardagi inyeksiya uchun eritmalar, shuningdek, tabletkalar hamda kapsulalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Ish o'rinlarining soni mingtagacha oshiriladi.

Prezidentimiz shu yerda viloyat faollari va nuroniylar bilan muloqot qildi. Iqtisodiyot, sanoat, qishloq xo'jaligi, yoshlar tarbiyasi va hududning kelajagiga oid muhim masalalar yuzasidan ochiq suhbat bo'ldi. Davlatimiz rahbari odamlardagi tashabbuskorlik islohotlar samarasini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidladi.

– O'zgarishlar, avvalo, mahallalarda sezilishi kerak. Sizlar odamlar bilan doimiy muloqotda bo'lib, yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishingiz zarur. Hammamiz uyg'oq va faol bo'lsak, harakatlalarmiz, olib borayotgan islohotlarimiz albatta natija beradi. Sirdaryoga katta rejalarni bilan kelganimiz. Sizlarni eshitib, bamaslahat bu rejalarni amalga oshiramiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasida

faoliyat yuritayotgan “Invest Asia” korxonasida bo'ldi.

Korxona qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchilardan biri hisoblanadi. Hozirda ichki bozordagi polipropilen qop va yumshoq konteynerlarning 60 foizi, stretch plyonkalarining 40 foizi aynan shu korxona hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Majmua 60 gektar maydonda barpo etilgan bo'lib, hozirgi paytda 2,5 mingga yaqin ish o'rinlari yaratilgan.

Qadoqlash mahsulotlari oziq-ovqatdan tortib farmatsevtika, sanoat, qurilish va maishiy kimyogacha bo'lgan ko'plab sohalar uchun zarur. Ularning sifati mahsulotning xavfsiz saqlanishi, transportirovkasi va bozorga o'z vaqtida yetkazilishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham bunday mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish import xarajatlarni kamaytiradi, ichki bozor barqarorligini ta'minlaydi va ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlarni sezilarli qisqartiradi.

“Invest Asia” korxonasining yana bir muhim jihati uning mamlakatda bioaksal yo'naltirilgan polipropilen plyonka ishlab chiqaradigan yagona korxona ekanidir. Bu plyonka turi eng ommabop qadoqlash materiallaridan biri bo'lib, qattiq va yengilligi bilan ajralib turadi.

Joriy yilning o'n oyida korxonada 1,9 trillion so'mlik mahsulot tayyorlangan, 23 million dollarlik eksport amalga

oshirilgan. Avstriya, Germaniya, Italiya, Xitoy va AQSh kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyali uskunalardan foydalanilmoqda.

Prezidentimiz korxonada amalga oshirilayotgan texnologik jarayonlarni ko'zdan kechirdi, ishchilar bilan muloqot qildi. Kelgusi rejalarni bilan tanishdi.

Shuningdek, yil yakuniga qadar bu yerda Markaziy Osiyodagi eng yirik spanbond va meltblau – noto'qima mato ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilishi kutilmoqda. Bunday matolar tibbiyot, qurilish, maishiy kimyo va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi.

Barcha loyihalar to'liq quvvatga chiqqach ish o'rinlarining soni 10 mingtaga yetishi, polimerni qayta ishlash quvvati 280 ming tonnagacha oshishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari shu yerda viloyatda yirik loyihalarni amalga oshirayotgan va yangi tashabbuslar bilan chiqayotgan xorijiy investorlar bilan ham muloqot o'tkazdi. Hudud iqtisodiyoti, aholi bandligi va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladigan har bir loyiha davlat tomonidan, albatta, qo'llab-quvvatlanishi ta'kidlandi.

Investorlar mamlakatimizdagi tadbirkorlik va investitsiya muhitini yuqori baholab, biznes uchun yaratilgan keng imkoniyatlar hamda amaliy ko'mak uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirilar.

Davlatimiz rahbari Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida Guliston shahriining Bo'ston mahallasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini borib ko'rdi.

Bo'ston mahallasi joriy yil obod mahallaga aylandi. Hududdagi barcha ko'p qavatli uylar ta'mirlandi, hudud obodonlashtirildi. Mahalla markazining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Prezident dastlab shu yerda mahalla faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy muloqot o'tkazdi. Uchrashuvda mamlakatning barcha hududlarida quyi bo'g'indagi muammolarni hal etish, mahallalarni obod qilish va aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar samarasi Sirdaryoda ham o'z aksini topayotgani ta'kidlandi.

– Mahalla – jamiyatning yuzi. Mamlakatdagi barcha o'zgarishlar, avvalo, shu yerda o'z ifodasini topadi. Biz shunday tizim yaratdikki, ilgari jiddiy deb hisoblagan ko'plab masalalarimizga yechimni aynan mahallaning o'zida topaymiz. Bu institutga e'tiborni yanada kuchaytirishda davom etamiz, – dedi Prezidentimiz.

Hududdagi 48 ta ko'p qavatli uy joriy ta'mirlandi, tashqi qismi bazalt bilan qoplandi. Issiqlik ta'minotini yaxshilash maqsadida 18 milliard so'm hisobiga zamonaviy qozonxona va 3,3 kilometr issiqlik tarmoqlari qurildi.

Ko'p qavatli uylarda 23 ta individual issiqlik punktlari o'rnatilib, “yopiq” tizim tashkil etildi. Mahalliy byudjet

mablag'lari hisobidan hududdagi 800 ta xonadonli 20 ta ko'p qavatli uyning ichki issiqlik tizimlari qayta tiklandi. 1 ta bog'cha markazlashgan issiqlik energiyasi va issiq suv bilan ta'minlandi.

Yangi qozonxona qurilishi natijasida 144 ming kilovatt-soat elektr va 627 ming kubometr tabiiy gaz iqtisod qilinadi.

Prezidentimiz ko'p qavatli uylarda yashovchi aholi uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan bu ishlarni davom ettirish, qozonxonalarni qurish va ulardan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, malakali mutaxassislarni jalb etish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berdi.

Shu yerning o'zida “yettilik” vakillari va nuroniylar bilan mahalla hamda viloyat hayotida bo'layotgan o'zgarishlar xususida suhbat bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sirdaryo viloyatida infratuzilmani rivojlantirishga doir qarori asosida hududda 215 ta ko'p qavatli uyni qamrab olgan maxsus manzilli ro'yxat shakllantirilgan. Ushbu hujjat doirasida uylarning tom va fasad qismlarini ta'mirlash, issiqlik ta'minotini, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash hamda atrof-muhitni obodonlashtirish ishlari rejalashtirilgan.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati suratlari

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining  
F A R M O N I  
**E. O. TURDIMOVNI  
SIRDARYO VILOYATI HOKIMI  
LAVOZIMIGA TAYINLASH  
TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-band va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining qaroriga muvofiq Erkinjon Oqbutayevich Turdimov Sirdaryo viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Sh. Mirziyoyev

Toshkent shahri,  
2025-yil 4-dekabr

## QIZG'IN MULOQOTLARGA BOY TASHRIF

Avval xabar berganimizdek, 1 – 3-dekabr kunlari Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi parlament delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Vengriyada bo'ldi.

Ushbu mamlakatga tashrifning ikkinchi kuni O'zbekiston delegatsiyasi Vengriya tadbirkorlari va kompaniyalari vakillari bilan bir qator amaliy uchrashuvlar o'tkazdi. Unda Vengriyaning 20 ga yaqin kompaniya va tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Delegatsiya a'zolari mezbonlarga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, iqtisodiy liberallashtirish, sanoat modernizatsiyasi, xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiya, ta'lim va madaniy sohalarida izchil hamkorlik yo'lga qo'yilgani alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvlarda “4iG” – raqamli yechimlar va telekommunikatsiya, “H<sub>2</sub>O Konzorcium” – suv ta'minoti hamda ekologik texnologiyalar, “Metrimed” – tibbiyot jihozlari va sog'liqni saqlash, “FANTASTIGO” – iste'mol tovarlari, “Limelog” va “Woodstock” – logistika hamda eksport-import sohalarida sheriklik imkoniyatlari muhokama qilindi. Vengriya tadbirkorlari O'zbekiston bilan hamkorlikni kengaytirishga katta qiziqish bildirdi.

Shuningdek, Vengriyaga rasmiy tashrif doirasida O'zbekiston delegatsiyasi “4iG” kompaniyasi boshqaruv kengashi raisi Gellert Yaszi bilan xalqaro biznes aloqalarini rivojlantirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan uchrashuv ham o'tkazdi.



### Xalqaro hamkorlik

## O'zbekiston – Turkiya: KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI RIVOJLANADI

3-dekabr kuni Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurdi.

Mazkur tashrif doirasida delegatsiya a'zolari Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Turkiya tibbiyot fakulteti Davolash ishi va oliy hamshiralik yo'nalishi talabalarining bitiruv marosimida ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi strategik hamkorlik sezilarli darajada mustahkamlandi. Davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdog'an o'rtasidagi ishonch, hurmat va samimiyatga asoslangan

munosabatlar ta'lim, ilm-fan va tibbiyot sohalaridagi hamkorlikni yuqori darajaga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

O'tgan davrda parlamentlararo hamkorlik, Oliy Majlis va Turkiya parlamenti o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, qator qo'shma loyihalar va dasturlar amalga oshirildi. Shuningdek, qo'shma universitetlar va akademik almashinuvlar orqali oliy ta'lim muassasalarida innovatsion usullar joriy etildi.









8-dekabr – Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

## BARQAROR TARAQQIYOT KAFOLATI

8-dekabr – xalqimiz tarixida alohida oʻrin tutuvchi, mamlakatimiz taqdirini belgilab bergan eng muhim sanalardan biri. Aynan shu kuni biz Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganini tantanali ravishda nishonlaymiz.

## Sana

Bu sana oʻtgan 33 yil davomida Bosh qomusimizning yurtimiz hayotida tutgan oʻrni, amalga oshirilgan keng koʻlamli islohotlar va jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishi haqida chuqur mushohada yuritishga chorlaydi. U qabul qilingan ondan boshlab mamlakatimiz rivojlanishning katta va sharafli yoʻlini bosib oʻtdi. Davlatchilik tizimi mustahkam shakllandi, qonun ustuvorligi va inson huquq hamda erkinliklarining oliy qadriyat sifatida kafolatlari yanada takomillashdi.

Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, Konstitutsiya, bu shunchaki qonunlar yozilgan qogʻoz emas, balki xalqimiz mardligi, jasorati, adolatga sadoqati va kelajakka boʻlgan ishonchi aks etgan muqaddas hujjatdir. U xalq bilan davlat oʻrtasidagi mustahkam kelishuv. Shuning uchun ham mamlakatimizda olib borilayotgan har bir islohot, har bir qonun Konstitutsiya ruhi va talablariga asoslanadi.

Asosiy Qonunimizning yangi tahrirda qabul qilingani esa jamiyatimizdagi oʻziga xos burilish nuqtasi boʻldi. Chunki yangi tahrirda “Inson qadri uchun”



tamoyili davlat siyosatining asosiy yoʻnalishi sifatida belgilab qoʻyildi. Bugungi kunda imzolanayotgan har bir qaror, har bir strategik islohot, avvalo, eng oliy qadriyat boʻlmish inson manfaatlarini taʼminlashga, uning konstitutsiyaviy huquq va qonuniy erkinliklarini ishonchi himoyalashga qaratilgan. Bu yangi davr falsafasi – insonni davlat siyosatining markaziga qoʻyish, uning qadriini ulugʻlash va har bir fuqaroga munosib sharoit yaratish asosiy vazifamiz.

Oʻtgan davr mobaynida Konstitutsiyamiz mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va demokratiyani mustahkamlashda asosiy mezon boʻlib xizmat qildi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash, jamiyatda adolatlari qaror

toptirish, fuqarolarning qonun oldida tengligini taʼminlash yoʻlida katta ishlar amalga oshirildi.

Uning yangi tahririda “ijtimoiy davlat” tamoyilining mustahkamlanishi mamlakatimizda keng aholi qatlamining turmush darajasini tubdan oshirish, muhtoj va kam taʼminlangan fuqarolarni kompleks qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, yoshlar, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari manfaatlarini ishonchli himoyalash uchun ulkan imkoniyatlar eishigini ochdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani ishlab chiqish jarayonida rivojlangan davlatlar tajribasi oʻrganilgani, jumladan, Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya, Chexiya kabi davlatlarning huquqiy modellari tahlil etilgani ham mamlakatimizda demokratiya va qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qildi. Bu normalar milliy anʼanalirimiz va ehtiyojlarimiz bilan uygʻunlashgan holda shakllantirildi.

Konstitutsiya – bu tarixiy hujjat, millatning huquqiy merosi va kelajakni belgilab beruvchi mayoq. Hozirgi davr har birimizdan masʼuliyat, faollik va qonunlarga hurmat bilan yondashishni talab etadi. Chunki unga amal qilish asosiy vazifamiz.

Shu maʼnoda, bugun amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi “Inson qadri uchun” tamoyiliga tayangan holda Yangi Oʻzbekistonda barpo etishga qaratilgan. Mana shu ulkan maqsad yoʻlida barchamizni birlashtirib turadigan asosiy qudrat – bu Bosh qomusimiz.

solish, fuqarolarning maqomi va masʼuliyatini aniq belgilash, shu orqali jamiyatda barqarorlik va muvofiqlik muhitini yaratishga yoʻl ochadi. Bosh qomusimizning har bir moddasi mamlakat taraqqiyotining strategik yoʻnalishini belgilab, yangilanish va islohotlar jarayonida muhim huquqiy tayanch vazifasini bajarmoqda.

Shuning uchun ham Konstitutsiyaning hayotimizdagi oʻrnini chuqur anglash, uning tamoyillarini amalda namoyon etish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish har birimiz uchun muhim vazifadir. Uning barqarorligi va normalarga sodiqlik esa kelajak avlodlar uchun mustahkam va ravshan yoʻlni belgilab beradi.

Konstitutsiyamiz mamlakatimiz taraqqiyotining “Yoʻl xaritasi”, fuqarolarning erkin va farovon hayotini kafolatlovchi mustahkam asosdir. Unda belgilab qoʻyilgan tamoyillarga sodiq qolish, qonun ustuvorligini taʼminlash va har bir fuqaroning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish barchamizning burchimiz.

Shu maʼnoda, bugun amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi “Inson qadri uchun” tamoyiliga tayangan holda Yangi Oʻzbekistonda barpo etishga qaratilgan. Mana shu ulkan maqsad yoʻlida barchamizni birlashtirib turadigan asosiy qudrat – bu Bosh qomusimiz.

**Abdulkhamid ESHMURATOV,**  
**Oliy Majlis Senatining Sud-**  
**huquq masalalari va korrupsiyaga**  
**qarshi kurashish qoʻmitasi raisi.**

## “Ochiq eshiklar kuni”

## Shaffoflik taʼminlanadi

Oliy Majlis Senatida “Konstitutsiya oyligi” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil etildi.

Mazkur tadbir 8-dekabr – Konstitutsiya kuni arafasida aholining konstitutsiyaviy madaniyatini oshirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini yanada mustahkamlashga qaratildi.

Unda Berdaq nomidagi Qoraqalpogʻ davlat universitetining professor-oʻqituvchilari, magistrantlari hamda talabalari ishtirok etib, Senat faoliyati, qonunchilik jarayonlari va konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati haqida batafsil maʼlumotlarga ega boʻldi.

Uchrashtirish davomida qonun ustuvorligini taʼminlash hamda inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishning dolzarb masalalari boʻyicha ochiq muloqot hamda fikr almashinuvi boʻlib oʻtdi. Tadbir ishtirokchilari parlamentning yuqori palatasi faoliyati bilan yaqindan tanishib, oʻzlarini qiziqitrgan savollarga javob oldi.

“Xalq soʻzi”.

## MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINING HUQUQIY MEZONI

Oliy Majlis Senatida mahalla faoliyatining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qoʻyilgan huquqiy asoslariga bagʻishlangan ilmiy-amaliy konferensiya boʻlib oʻtdi.

## Konferensiya

Anjuman doirasida mahalla institutining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan toʻrt asosiy yoʻnalishda maʼruzalar eshitildi.

Xususan, “Mahallaning konstitutsiyaviy asoslari” mavzuidagi maʼruzada mahallaning yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan maqomi va jamiyat hayotidagi oʻrni tahlil qilindi. “Fuqarolar yigʻini faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari” mavzuidagi taqdimotda esa fuqarolarning

oʻzini oʻzi boshqarishdagi ishtirokini taʼminlash mexanizmlari yoritib berildi.

“Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va mahalliy Kengashlar hamkorligining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari” mavzuidagi maʼruza doirasida mahalliy darajadagi oʻzaro hamkorlikni rivojlantirish, vakolatlarining aniq taqsimoti va tizimli hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, “Adliya organlarining fuqarolar oʻzini

oʻzi boshqarish organlariga huquqiy yordam koʻrsatish tartibi” mavzuidagi maʼruzada esa huquqiy savodxonlikni oshirish va mahallalarni huquqiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amaliy mexanizmlar haqida fikr yuritildi.

Tadbir ishtirokchilari mahalla institutini rivojlantirish, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish jarayonidagi ishtirokini kengaytirish va joylarda fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qoʻllab-quvvatlash muhimligini taʼkidlashdi.

Konferensiya yakunlari boʻyicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

## Oʻrganish

## Kun tartibida – bitiruvchilar bandligi masalasi

Oliy Majlis Senati Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasining ishchi guruhi tomonidan yoshlar, shu jumladan, taʼlim muassasalari bitiruvchilarining bandligini taʼminlash boʻyicha Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar holati oʻrganilmoqda.

Ishchi guruh aʼzolari viloyat Kasbiy koʻnikmalar markazi va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Markazlardagi oʻquv jarayonlari, amaliy mashgʻulotlar, taʼlim yoʻnalishlari, zamonaviy oʻquv uskunalari hamda tinglovchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar atroflicha tahlil qilindi.

Ayniqsa, nogironligi boʻlgan, kam taʼminlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni kasbga oʻqitish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash hamda jamiyatda munosib oʻrin topishga koʻmaklashish masalalari alohida koʻrib chiqildi.

Kasbiy koʻnikmalar markazi faoliyati tahlil etilib, bu kabi taʼlim muassasalari yoshlarning kasbiy bilim va koʻnikmalarini egallashi, oʻzlariga boʻlgan ishonchni oshirishi hamda jamiyatda munosib oʻrin egallashiga xizmat qilayotgani taʼkidlandi.

Shuningdek, ishchi guruh aʼzolari Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida yaratilgan ishlab chiqarish, infratuzilma sharoitlari bilan tanishdi. Ayrim sanoat zonalarida yoʻl, suv va elektr taʼminoti kabi infratuzilma ishlari toʻliq yakunlanmagan, bu esa yosh tadbirkorlarning loyihalarni oʻz vaqtida ishga tushirishda qiyinchilik tugʻdirayotgani taʼkidlab oʻtiladi.

Termiz, Angvor va Muzrabot tumanlaridagi mahallalarda “mahalla yetilligi” aʼzolari bilan ham uchrashtirildi.

Muloqotlar davomida aholining daromad manbalarini kengaytirish boʻyicha aniq amaliy tavsiyalar berildi.

“Xalq soʻzi”.

## Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

## DEPUTATLAR FIKRLARI QONUN LOYIHALARIDA AKS ETMOQDA

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yigʻilishlari boʻlib oʻtdi. Ularda quyil palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalarini atroflicha koʻrib chiqildi.

**Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yigʻilishida “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

Muhokama davomida qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida fraksiya aʼzolari tomonidan bildirilgan bir qator takliflar eʼtiborga olingani va hujjat matnida aks etgani aytiladi. Deputatlar bildirgan taklif hamda tavsiyalar asosida qonun loyihasiga bir qancha konseptual ahamiyatga ega boʻlgan oʻzgartirishlar kiritilayotgani aytib oʻtiladi. Xususan, fraksiya aʼzolari taklifiga muvofiq, Toshkent shahri va Fargʻona viloyatida onkologik va yuqumli boʻlmagan boshqa kasalliklarning oʻtkazib yuborilgan bosqichini boshidan kechirayotgan bemorlarni stasionar hamda ambulator sharoitda, shuningdek, uyda tibbiy davolash imkoniyati boʻlmaganda, ularga tibbiy-psixologik yordam koʻrsatadigan hududlararo xospislarni tashkil etish uchun 50 mlrd. soʻm mablagʻ koʻzda tutilayotgani urgʻulandi.

Fraksiya aʼzolari moliyaviy intizom va shaffoflikni yanada mustahkamlash, byudjet mablagʻlari manzillari yetib borishini taʼminlash samaradorlikning muhim sharti ekanini qayd etdi. Muhokamadan soʻng qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

“**Milliy tiklanish**” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining

Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi obdan muhokama etildi.

Qonun loyihasiga masʼul – Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi tomonidan

loyihani ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida muayyan ishlar qilingani taʼkidlandi. Deputatlar ilgari surgan har bir taklif ishchi guruh va mutaxassislar tomonidan atroflicha oʻrganilib, ushbu hujjatga bir qator oʻzgartirishlar kiritilgani maʼlum qilindi. Ayrim xarajatlar maqbullashtirilgan boʻlsa, ayrimlari oshirildi.

Yigʻilishda deputatlar ikkinchi oʻqishda ham oʻzlarini qiziqitrgan savollarga javob oldi. Shuningdek, hukumat vakillari birinchi oʻqishda koʻtarilgan ayrim masalalarga qoʻshimcha ravishda izoh berdi.

Munozaralar davomida fraksiya rahbari Alisher Qodirov qonun loyihasiga munosabat bildirib, zaruratga qarab barcha yoʻnalishga yetarlicha mablagʻ ajratilayotganini taʼkidladi.

– Gap mablagʻda emas, gap ajratilgan mablagʻdan samarali va maqsadli foydalanishda, – dedi fraksiya rahbari. Shuningdek, u deputatlarni joylarga oʻrganishga chaqqanida bu boradagi nazoratni yanada kuchaytirishga chaqirdi.

“**Adolat**” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab Prezidentimizning Jizzax viloyatiga tashrifining ahamiyati haqida soʻz bordi.

Deputatlar mamlakatimiz rahbari tibbiyot xodimlari bilan muloqoti davomida aholining tibbiy xizmatlardan roziligini oshirish masalasiga alohida eʼtibor qaratganini qayd etib, belgilab



berilgan ustuvor vazifalar partiyaning saylovoldi dasturi bilan hamohang ekanini taʼkidlashdi.

Yigʻilishda “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ham koʻrib chiqildi.

Fraksiya aʼzolari loyiha yuzasidan fikr bildirib, kelgusi yilda ham Davlat byudjeti taqchilligining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz miqdorida saqlanishi mamlakatda ichkil fiskal siyosat yuritilayotganidan dalolat berishini taʼkidladi. Bu koʻrsatkich iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, tashqi qarz yukini meʼyorda ushlab turish hamda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishga xizmat qilishi aytib oʻtiladi.

Sogʻliqni saqlash sohasiga yoʻnaltirilayotgan mablagʻlarning katta qismi bolalarni emlashga sarflanishi kelajak avlod sogʻlom rivojlanishini taʼminlash va milliy genofondni muhofazalashtirish muhim ahamiyat kasb etishi aytiladi.

**Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yigʻilishida “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi hamda “Byudjet jarayoni takomillashtirilganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihalarini muhokama qilindi.

Muhokama chogʻida fraksiya aʼzosi Anvarxon Temirov soliq tizimining barqarorligini saqlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, shu bilan birga, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini taʼminlash muhimligini taʼkidladi.

Uning aytishicha, aholining ehtiyojlarini qatlamlarini qoʻllab-quvvatlash koʻlamini kengaytirish, kam taʼminlangan oilalar uchun soliq yukini yanada qisqartirish, ayrim toʻlov va yigʻimlarni bosqichma-bosqich kamaytirish zarur.

Shuningdek, byudjet mablagʻlarining shakllanishi hamda sarflanishi yuzasidan maʼlumotlarni omma uchun yanada ochiq va toʻliq taqdim qilish, ochiq maʼlumotlar portali orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish partiyaning ustuvor maqsadi ekanligi aytiladi.

Fraksiya aʼzosi Firdavs Sharipov esa loyihada aks etgan ayrim soliq imtiyozlari boʻyicha aniq va samarali mezonlarni joriy qilish, natija bermayotgan imtiyozlarni qayta koʻrib chiqish, yangi tashabbuslarni tajriba tariqasida alohida hududlarda sinovdan

oʻtkazish boʻyicha takliflar berdi.

Deputatlar Ulugʻbek Shermatov va Sayyora Imomova maktablarda yongʻin xavfsizligini taʼminlash, istish tizimlarining uzluksiz ishlashini yoʻlga qoʻyish, mazkur yoʻnalishlarda moliyaviy barqarorlikni oshirish zarurligini taʼkidladi. Bu masalalarni mutasaddi tashkilotlar bilan batafsil muhokama qilish va joylarda taʼsir choralarini kuchaytirish lozimligi urgʻulandi.

Qizgʻin muhokama va savol-javoblardan soʻng har ikkala qonun loyihasi ham deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

**Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yigʻilishida byudjet tizimi va byudjet jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi. Ushbu qonun loyihasi byudjet daromadlari tarkibini muvofiqlashtirish, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda Davlat byudjetining ijrosi toʻgʻrisidagi hisobot turlarini kengaytirish, byudjet tizimiga old normativ-huquqiy hujjatlarning oʻzaro mutanosibligini taʼminlashga qaratilgan.

Muhokama davomida qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida undagi normalar deputatlar bildirgan taklif va tavsiyalar asosida takomillashtirilgani qayd etildi.

Fraksiya aʼzolari mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatimizda fuqarolarni byudjet jarayoniga keng jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish, byudjet mablagʻlarini taqsimlashda shaffoflikni taʼminlashga xizmat qilishini eʼtiborga olib, un qoʻllab-quvvatlandi.

Yigʻilishda kun tartibidan oʻrin olgan boshqa masalalar ham koʻrib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.







# CHO'PON CHO'PONLIKKA QIRQ YILDA YETADI

Qizilqum bag'rida ajdodlarimiz azaldan chorva boqib, o'zbek qorako'lchiligi dovrgu'ini dunyoga tanitgan. Cho'l iqlimiga xos injiqliklar – suv ta'minoti, garmse, tonggi shudring kabi qiyinchiliklar bu yerlik chorvadorlar uchun begona emas. Ular bu mashaqqatlarni asriy tajriba va omilkorlik bilan yengib kelishadi.

## Islohot

– Yoz chillasida bir kun suvsiz qolgan qo'y qishdan chiqmaydi, – deydi Konimex tumanining olis Boymurod ovuli qudug'ining cho'poni Umrzoq Jamanboyev. – Yozgi garmselda yotib qolgan qo'y ham qayta o'nglanmaydi. Shuning uchun garmse, vaqtlarida suruvni garmga yoyib, qo'y-qo'zining iligini to'ldirib yuramiz. Qishda esa cho'l'dagi eng katta xavf – tonggi shudring. Tunda yoyilmagan suruv och qoringa shudring bosgan shuvog'u o'tni yesa, qo'yning kasallanishi yoki bola tashlashi aniq. Shu bois kechki soat o'n-o'n birdan tonggi to'rt-beshgacha suruvning ortidan qolmaymiz. Irodasi qo'yning tuyog'idan qattiq kishi cho'l'da non topadi. Bu hayot tarzi bolaligimizdan singib, cho'pon tayog'imiz ham avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Biroq o'tgan asrning so'nggi yigirma yilida yuz bergan ayrim omillar sohaga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiy o'zgarishlar, bozor talab-ehtiyojlarining almashishi, davlat xo'jaliklarining turli shakllarga aylantirilishi Qizilqumda mas'uliyatni cho'ponlar zimmasiga yukladi. Aholi ko'p yillar davomida muammolar bahonasi sifatida "davlat yordam bermayapti", deb hisobladi. Ammo ildizlar ancha chuqur edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida qorako'lchilikka ixtisoslashtirilgan sovxoz va kolxozlar shirkatlarga, so'ng MCHJlarga aylantirildi. Lekin bu o'zgarishlar mol boshini saqlab qolmadi. Bir vaqtlar bir

yarim million bosh qorako'l qo'y boqilgan Uchquduq va Tomdi tumanlari yaylovlari bo'shab qoldi. Nurota va Konimexdagi chorvachilik xo'jaliklari inqiroz ostasiga kelib, ayrim rahbarlar va cho'ponlar talon-torjlikda ayblanib, javobgarlikka tortildi. Aslida esa dunyo mo'ynachiligida qorako'l terisiga talab keskin kamaygan, qorako'l zotli xo'jaliklarni go'sht yo'nalishiga o'tkazish vaqti kelgandi.

– Islohotlar o'zini oqlamadi, – deydi sohaning faxriysi Mustafo Egamqulov. – Aksincha, hisori va chatishma qo'ylarni ko'paytirib, bozorga go'sht chiqargan cho'ponlar yuqori samaraga erishdi. Ularning omilkorligi tufayli cho'pon

*Irodasi qo'yning tuyog'idan qattiq kishi cho'l'da non topadi. Bu hayot tarzi bolaligimizdan singib, cho'pon tayog'imiz ham avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.*

otlarida chiroq o'chmadi.

Albatta, idorada belgilangan chora-tadbirlardan farqli o'laroq, olis Qizilqumdagi cho'ponlarning omilkorligi o'z natijalarini berib, aholining chorva bosh soni ortib bordi. Ilgari cho'l yaylovlardagi har o'n qo'yning yettitasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulki bo'lsa, bugunga kelib buning aksini kuzatish mumkin.

Boshqacharoq aytisak, Qizilqumga chorvadorni manfaat fidokorona mehnat qilishga undamoqda.

Misol uchun Umrzoq Jamanboyev bugun ming boshga yaqin qo'ylarni boqadi. Uning mehnatiga tadbirkor tomonidan 3,5 million so'm oylik maosh, har oy go'sht uchun bir qo'y beriladi. Yil yakunida unumdan kelib chiqib ellik million so'mgacha rag'batlantiriladi. Bundan tashqari, yozning jazirasida tadbirkor cho'pon uchun ikki haftaga Chorvoddan birorta dala-hovlini ijaraga olib, uning oilasi bilan dam olishini ta'minlaydi. Bu

nafaqat mehnatga munosib taqdir, balki chorvachilikning bozor talablariga mos rivojlanayotganining dalilidir.

Qo'ylarimizning oldi 30 – 35 kilogrammgacha go'sht qiladi, – deydi U. Jamanboyev. – Besh otardan yiliga ming bosh qo'y sotilib, o'rniaga ming bosh qo'z qoldiriladi.

Bu – bir yilda taxminan 3,5 milliard

so'mlik daromad. Qorako'lchilikda bu kabi raqamga erishish mushkul: bir dona qorako'l terisi taxminan 50 ming so'm tursa, ming donasi ham 50 million so'mdan oshmaydi.

– Qirq uch yil cho'ponlik qilib, 2010-yili nafaqaga chiqdim, – deydi nurotalik mehnat faxriysi Qurbon Ergashev. – Kolxozda ham, shirkatda ham, MCHJda ham ish haqi degan narsa bo'lmagan. Kuzda qo'zi, sholg'om, sabzi va boshqa ro'zg'orga kerakli mahsulotlar bilan hisob-kitob qilishardi. Qo'zini sotib, yetmagani, o'zimizdan qo'shib kun ko'radik.

Ta'kidlash joizki, biz qorako'lchilikdan butunlay voz kechish kerak, degan fikrdan mutlaqo yiroqmiz. Chunki dunyoga "Buxoro qorako'li" nomi bilan tanilgan o'zbek mo'ynachiligi – millat iftixori. Uni asrash, naslchilik ishlarini rivojlantirish, qorako'l qo'ylarining elita genofondini ko'paytirish maqsadida ko'p yillar davomida jiddiy seleksiya ishlari olib borilmoqda. Nurota tumanidagi "Nurota", Konimex tumanidagi "Konimex" naslchilik xo'jaliklarida "Zarmalla" va "Sarjol" navlariga asos solingan, "Abay" naslchilik xo'jaligida esa 1993-yili kumush surning "O'zbekiston" navining yaratilishi shular jumlasidan. Biroq bugungi kunda qorako'l telpak yoki quloqchin kiygan odamni ko'cha-ko'ya deyarli uchratmaysiz. Alohida marosimlardan tashqari, yoshlar bu bosh

kiyimdan umuman foydalanishmaydi. Yevropa mamlakatlari esa mo'ynadan o'tgan asrning 70-yillaridayoq voz kechgan. Demak, Qizilqum chorvachiligini mo'yna yo'nalishidan qo'shtchilikka o'tkazish zarurati anchadan beri mavjud edi.

2024-yil 1-noyabr kuni Prezidentimiz Navoiy viloyatini ijtimoioy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yig'ilishda aynan shu masalaga to'xtalib, 2024 – 2026-yillarda Mo'g'ulistonidan go'sht va jun yo'nalishidagi qo'y-echkilarni olib kelish vazifasini belgiladi.

– Ushbu topshiriqlar ijrosi doirasida veterinar olimlar tomonidan iqlim sharoitimizga mos "Bayat" zotli qo'ylar tanlandi, – deydi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig'i Oybek Nizamov. – Ularning tirik vazni 70 – 80 kilogramm, qo'chqorlari 100 – 120 kilogrammgacha yetadi. Go'sht chiqimi tirik vazniga nisbatan 60 foizni tashkil etadi.

O'tgan yilda Konimex tumaniga 50 ming bosh ushbu zotdagi qo'ylar keltirildi. Ularning 750 boshi Umrzoq Jamanboyev otariga ajratilib, cho'l iqlimiga moslashtirildi.

– Avvaliga bu qo'ylar o'zlarini begona tutib turishdi, – deydi cho'pon.

– Hozir o'rganib ketdi. Shu yil ko'klamda dastlabki qo'zini oldik. O'tgan yili

kuzda olib kelganimiz yaxshi bo'lgan ekan, anchagina qo'chqor qo'zilar ham tug'ildi. Endi nasib etsa, zot buzilmasligi ta'minlanadi.

Mo'g'ulistondan keltirilgan qo'ylar transport xarajatiga davlat tomonidan 50 foiz subsidiya berilishi esa cho'ponlar uchun katta yengillik. Bu imkoniyat hisobidan otarlarda zarur infratuzilmalar – xashak omborlari, maydalash agregatlari, yuk mashinalari, traktor va tirkama, arpa va bug'doyga to'la konteynerlar, yoqilg'i-moylash materiallari va dori-darmonli muzlatkichlar yaratilmoqda. Qizilqumda cho'ponlarning asosiy muammolari bartaraf etilmoqda. Tabiiy o'tlatishga asoslangan go'sht yetishtirish hajmi va sifati oshmoqda.

Tabiiy go'sht – har bir mamlakatda aholi farovonligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Chunki tabiiy yo'l bilan yetishtirilgan go'sht bozorlarga kirib kelmas ekan, bo'rdoqchilik orqali olingan go'sht iste'molga urvoq ham bo'lmaydi. Qancha ishlov berilmasin, uning ta'mi va sifati tabiiy darajaga yetmaydi. Shu bois aholi haqiqiy, tabiiy yo'l bilan yetishtirilgan go'shtni izlab, qimmat bo'lsa ham, sotib olishga tayyor. Bugungi bozordagi manzara ham bu haqiqatni ochiq-oydin ko'rsatib turibdi.

**Temur ESHBOYEV**  
("Xalq so'zi").

## TADBIRKORLARNING MUNAVVAR TONGI

Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanida qishloq xo'jaligi sohasida yer bilan tillashib, mahalladoshlari oilasiga baraka kiritayotgan mehnatkash ayollar ko'p. Tumandagi "Ra'no Kamalovna" fermer xo'jaligi rahbari Ra'no Yuldasheva ana shunday mirishkorlardan. Fermer xo'jaligi a'zolari jami 15 gektarga yaqin maydonda dehqonchilik qiladi. Shundan 5 gektarida uzumning bir nechta navi yetishtiriladi. Yozda uzumning mahalliy ertapishar navlaridan "Charos", "Husayni" yetishtirilsa, kuzda "Toifi" pishib yetiladi.

### Omilkorlik



navlari ham hosilga kiradi. Maqsadim bozorlarimizni arzon, sarxil meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash va eksportga chiqarishdir.

Mazkur fermer xo'jaligi hosilining asosiy qismini Qozog'istonga eksport qilmoqda. Dastlabki jo'natilgan 4 tonna uzum manzilga yetib bordi. O'n ikki nafar mavsumiy ishchi hosilni terib, qadoqlashda yordam bermoqda. Qo'shni davlatlarda ham Qoraqalpog'istonda yetishtirilgan mevalar xaridorgir. O'z vaqtida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, qilingan mehnat uzumning yaxshi hosil berishiga sabab bo'ladi.

Ra'no opaning shijoatidan ilhomlangan Munavvar Ro'ziyeva ham ko'p yillardan beri gulchilik bilan shug'ullanadi.

– Shu xonadonga kelin bo'lib tushganimga 15 yil bo'ldi, – deydi M. Ro'ziyeva. – Avvaldan bu xonadon ko'chatchilik, gulchilik bilan shug'ullangan. Boshida gulchilikni, issiqxona ishlari bilmasdim. Qaynonam boshchiligida uch nafar ovsinimning kun bo'yi hovli etagidagi issiqxonada gul parvarishi bilan shug'ullanishlari, kechqurun dasturxon atrofiga bajarilgan ishlarni muhokama qilishlari gulchilikka qiziqish uyg'otdi. Gullar – misoli tabib. Ularga qarasang, ko'ngling yoziladi. Hech bir kun yo'qki, xonadonimizga xaridorlar tashrif buyurmagan bo'lsa. Hali u gulni, hali bu gulni so'rab kelishadi. Asosan, "Baxt guli", "Geran", "Fikus", "Palma", "Kaktus" singari gullarning bozori chaqqon. Har bir xaridorning tashrifi xonadonimiz uchun baraka. Mavsumda mahallamizda ishsiz o'tirgan ayollarni ham jalb qilamiz.

"Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik", deya bejiz aytilmagan. Ushbu tumanning "Shabboz" ovul fuqarolari yig'inidagi Ra'no Yuldasheva boshchiligida yetishtirilayotgan mahsulotlar bugun ko'shni respublikalarda ham sotilib, yurtimizning eksport salohiyatini ko'tarmoqda. Bo'ston mahallasidagi Munavvar Ro'ziyeva esa nafaqat toqmarosni, balki mahallasini ham gullar bo'stoniga aylantirmoqda. Bu ishni qo'shnilariga ham o'rgatib, Bo'stonni gulchilar mahallasiga aylantirishga katta hissa qo'shmoqda.

**G'ayrat OTAJONOV**  
("Xalq so'zi").



### Qaror ijrosi

## TALAB VA TAKLIF

### Bozor iqtisodiyotining bu tamoyili parrandachilik rivojida o'zining hayotiy ifodasini topmoqda

Bugun istalgan supermarket yoki oziq-ovqat do'konlaridan aholi talabiga mos parranda go'shti va tuxum mahsulotlarini topish mumkin. Oqsilga boy va servitamin bu mahsulotlar xaridorgirliigi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, tuxumning narxi boshqa oqsil manbalariga nisbatan ancha hamyonbop bo'lgani uchun iqtisodiy jihatdan tejamkor oilalarning doimiy tanloviga aylangan. Talabning ortishi ortida faqat narx omillari emas, balki bir qator ijtimoioy, iqtisodiy va sog'lom ovqatlanishga doir tendensiyalar ham turibdi. Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish madaniyati kuchayib, sifatlari oqsil va tabiiy vitaminlarga bo'lgan ehtiyoj oshib borayotgani ham bu jarayonni tezlashtirmoqda.



Shu jihatdan, so'nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq aholisini band etishda alohida ahamiyatga ega istiqbolli tarmoqlardan biri bo'lgan parrandachilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, zarur infratuzilmani yaratish, amaliyotga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsuldor parranda zotlarini ko'paytirish borasidagi keng qamrovli ishlar o'z samarasini berib, tuxum va tovuq go'shti ishlab chiqarish hajmi yil sayin ortmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 27-iyundagi "Parrandachilik sohasini yanada qo'llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini berdi. Mazkur hujjatga ko'ra, 2030-yil 1-yanvarga qadar parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini (ekin maydonlaridan tashqari) to'lashdan ozod etildi, 2024-yil 1-iyuldan boshlab parranda go'shtini (TIF TN kodi 0207) eksportga chiqarishda mavjud barcha cheklavlar bekor qilindi, shuning bilan birgalikda chetdan keltiriladigan naslli jo'jalarga subsidiyalari ajratish joriy etilgan.

– Bu imtiyoz va qulayliklarning ijobiy ta'siri yaqqol sezila boshladi, – deydi "Parrandasanoat" uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Ulug'bek Ahmedov. – Avvalo, faoliyat ko'lami kengayib, mahsulot sifati yaxшилandi. Qolaversa, tarmoqqa zamonaviy

texnologiya va innovatsiyalar kirib kelishi jadal tus oldi. Bularning samarasi o'laroq, joriy yilning birinchi yarmida 417,4 tonna parhez tovuq go'shti va 4 mlrd. dona tuxum ishlab chiqarildi. Bu borada xorijiy mutaxassislar tajribasi ham qo'l kelayotganini ta'kidlash joiz. Shu yilning 17-noyabr kuni O'zbekiston parrandachilarining VIII xalqaro parrandachilik forumi o'tkazilgani, unda AQSH, Xitoy, Germaniya, Niderlandiya, Ispaniya, Chexiya, Daniya, Vengriya, Malayziya, Turkiya, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistondan 150 dan ortiq kompaniyalarning vakillari ishtirok etgani e'tiborga molik. Parrandachilarimiz xalqaro hamkorlar bilan O'zbekistondagi mavjud quvvatlarni kengaytirish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, ozuqa-yem ishlab chiqarish va qayta ishlashning ilg'or usullarini joriy qilish borasida fikrlashishdi.

Darhaqiqat, bunday xalqaro anjumanlar muvaffaqiyatlar ko'laminani yanada mustahkamlashga imkoniyat yarataypti. Ana shu tajribalar asosida parrandalar naslini yaxshilash, zamonaviy inkubatorlar sonini ko'paytirish ishlari hajmi kengaytirilmoqda. Masalan, Samarqand, O'rta Chirchiq, Baliqchi tumanlarida yiliga 72 mln. bosh jo'ya yetishtirish quvvatiga ega inkubatorlar ishga tushirilgan bo'lsa, Ohangaron, Nukus, Bekobod tumanlarida nasli parrandachilik xo'jaliklarini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazilyapti. Shuningdek, Ohangaron va Jomboy tumanlarida yiliga 700 ming tonna parranda ozuqasi ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxona va don saqlash



omborxonalari ham qurilmoqda.

Parranda go'shtidan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari parhez taom bo'lib, unga aholi o'rtasida talab yuqori. Bu ehtiyojni qondirish borasida Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor. Bu hududda 2025-2026-yillarda Turkiya tajribasi asosida parranda go'shti yetishtirish va qayta ishlash uchun tayyor biznes loyihasi ishlab chiqilgan. Qiymati 70 mln. dollarga teng bo'lgan ushbu loyiha doirasida yiliga 60 ming tonna parranda go'shti ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Bu esa nafaqat ichki bozorni ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish imkonini ham beradi.

Bu kabi istiqbolli loyihalar mamlakatimizning boshqa hududlarida ham amalga oshirilmoqda. Bunga Sayxunobod tumanida ro'yobga chiqarilayotgan 200 ming bosh parranda boqishga mo'ljallangan loyiha, AQShning "Aviagen group" kompaniyasi tomonidan Jizzax viloyatida tashkil etilayotgan 100 ming bosh parranda parvarishlash quvvatiga ega naslchilik korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, Samarqand viloyatida ham Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, "Parrandasanoat" uyushmasi hamda "Qo'shrabot Boksmeer parranda" MCHJ tomonidan Niderlandiyaning "Hendrix genetics" kompaniyasi bilan hamkorlikda tuxum yo'nalishidagi naslchilik korxonasini tashkil etish

Mamlakatimizda Prezident qarori asosida birgina parrandachilik tarmog'ida umumiy qiymati 1,5 trln. so'mlik 203 ta loyiha amalga oshirilib, 101 mln. dona tuxum va 51 ming tonna parranda go'shti yetishtirish imkonini beradigan qo'shimcha quvvatlar ishga tushirildi. Buning hisobiga 2 276 ta yangi ish o'rni ochildi. Tarmoqqa ixtisoslashtirilgan xo'jaliklardagi yem ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish evaziga mavjud quvvat 30 foizga oshirilib, 1,6 mln. tonnaga yetkazildi.

Bularning barchasi yurtimizda "yetti xazinaning biri" deb ta'riflanadigan parrandachilikni yil davomida rivojlantirish uchun qulay tabiiy iqlim sharoitidan unumli foydalangan holda jahon bozoriga talab yuqori bo'lgan tuxum va parhez go'sht mahsulotlari bilan dadil kirib borish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Faxriddin BOZOROV**  
("Xalq so'zi").

**Qatar bozoriga "Products of Uzbekistan" brendi ostida 15 million dollarlik mahsulotlar eksport qilinadi.**



# XALQCHIL TIBBIYOT TIZIMINI YARATISH YO'LIDAGI DADIL QADAM

Sog'liqni saqlash tizimi har bir davlatning ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aholi salomatligi – iqtisodiy o'sish, demografik barqarorlik, inson kapitali rivojlanishi va jamiyat farovonligi davlat qudratining asosidir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tibbiyot sohasini isloh etish, tizimni modernizatsiya qilish va uni zamonaviy standartlarga moslashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Tibbiyotni rivojlantirish – bu faqat sohaga oid chora-tadbirlar emas, balki butun jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi keng qamrovli dastur majmuiga aylandi.

## Nuqtai nazar

Mamlakatimizda onalar va bolalar, ayniqsa, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligi eng ustuvor vazifalardan. Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2017-yildan buyon onalar o'limi 21 foizdan 11 foizga, chaqaloqlar o'limi 11,5 foizdan 7,8 foizga kamaygani, o'rtacha umr ko'rish 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzaygani fikrimiz tasdig'i, albatta. Ushbu sohani moliyaviy ta'minlash maqsadida Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar yildan-yilga oshirilmoqda. Birgina 2022-yilda bolalarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha 270,6 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu sohaga 388,4 mlrd. so'm mablag' yo'naltirildi.

## Ilg'or tajribaga asoslangan yangi model

So'nggi besh yilda bir qator pediatriya xizmati muassasalari modernizatsiya qilinib, zamonaviy yuqori texnologik operatsiyalarni o'tkazishga mo'ljallangan texnikalar bilan jihozlandi. Onalar va go'daklar o'limi sezilarli darajada kamaydi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'krak suti bilan oziqlantirish ulushi oshdi, besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtaida ortiqcha vazn 4,2 foizga kamaydi.

Birlamchi bo'g'inni kuchaytirish maqsadida xalqaro tajribaga asoslangan yangi model joriy etildi: qisqa muddatda 490 ta muassasa qayta tashkil etildi, 350 ta mustaqil oilaviy poliklinika faoliyat boshladi. Raqamlashtirish yo'nalishida yagona platforma – "DMED" ishga tushirilib, unga 36 mln. fuqaroning tibbiy ma'lumotlari integratsiya qilindi, tez tibbiy yordam chaqiriqlarini elektron boshqarish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Tibbiyotda xususiy sektor ulushi ortib, klinikalar soni 3,5 mingdan 9 mingga yetdi, xizmat turlari 50 tadan 130 tagacha ko'paydi. Farmatsevtika ishlab chiqarishi 1,4 trln. so'mdan 6,3 trln. so'mga, eksport hajmi 6,3 mln. dollardan 250 mln. dollarga o'sdi.

Shu bilan birga, tibbiy infratuzilmani yanilash maqsadida 187 ta shifoxona hamda poliklinika ishga tushdi va 1244



ta shifoxona hamda poliklinikalar kapital ta'mirlandi. Faqat poytaxt yoki viloyat markazlarida mavjud bo'lgan 400 dan ortiq diagnostika va davolash xizmatlari endilikda chekka tumanlarda ham barpo etilyapti.

Viloyatlarda tez yordam parklari to'liq yangilandi. Yuzlab MRT, MSKT, KT, onkologiya uchun liney akseleratorlar, RET/ST, raqamli mammografiyalar, rentgen, endoskopiya, angiografiya kabi zamonaviy uskunalar tibbiy amaliyotlar uchun muassasalarga o'rnatildi. Bu esa erta tashxis qo'yish imkoniyatini oshirdi, ko'plab operatsiyalarni robotlashtirilgan jarrohlik usulida yoki kam invaziv usulda o'tkazishga sharoit yaratildi. Shifoxonalar jahon standartlari darajasida ishlashi uchun xalqaro akkreditatsiyalardan o'tish mexanizmlari joriy etildi. Tibbiyotga robot-jarrohlar, avtomatlashtirilgan diagnostika komplekslari, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlardan foydalanish tibbiy xizmat sifati hamda xavfsizligining yangi bosqichini boshlab berdi.

## Ilm, amaliyot va xalqaro hamkorlik

Ta'kidlash joizki, tibbiyot oliygohlarida xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda teletibbiyot va sun'iy intellekt asosidagi diagnostika bo'yicha qo'shma loyihalar faol amalga oshirilmoqda. Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari, rezidentlari simulyatsion markazlarda o'qitilayotir va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashmoqda. Bu esa kadrlar tayyorlash tizimida keskin buriilish yasamoqda.

Yurak-qon tomir tizimida

klapanlarni almashtirish, tug'ma nuqsonlarni bartaraf qilish, aorta anevrizmasi va koronar qon tomirlaridagi amaliyotlar tuman va viloyat markazlarida ham bajarilmoqda. Neyrojarrhohlik yo'nalishida eng murakkab operatsiyalar mahalliy malakali shifokorlar tomonidan amalga oshirilayotganligi tahsinga sazovor.

Jumladan, joriy yilda Samarqand davlat tibbiyot universiteti professorlari – neyrojarrohlari tomonidan ilk bor "Parkinson" kasalligi uchun neyrostimulyator (mikroimplant) o'rnatish mikroxirurgik amaliyoti muvaffaqiyatli bajarildi. Neyroendoskopik jarrohlik usuli bilan tug'ma yoki asab patologiyasi bilan og'rigan bemorda birinchi marta "vertical hemispherotomy" jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Ilk bor bosh miyadagi agressiv xavfli o'sima olib tashlandi. Bundan tashqari, "Inson tanasi a'zolarini "3D" modellashtrish va konstruksiyalash", "nerv tizimini sun'iy intellekt yordamida ilmiy tadqiq qilish" kabi ilmiy- tadqiqot laboratoriyalari tashkil etildi. Endoskopiya va ortopediya, yuz-jag' jarrohligi, ginekologiya sohalarida yuqori texnologiyali amaliyotlar nafaqat markazda, balki barcha



viloyatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Sir emas, "siam egizaklari"ni ajratish tibbiyotdagi eng murakkab amaliyotlardan biri bo'lib, faqat malakali mutaxassislar, yuksak texnologiya va aniq rejalashtirish tufayli muvaffaqiyatli o'tadi. O'zbekiston shifokorlari ikki marotaba "siam egizaklari"ni muvaffaqiyatli ajratishga erishishdi. Bu jamoaviy yondashuvni talab qiladigan, faqatgina rivojlangan davlatlarning yetakchi jarrohlik markazlari mutaxassislari uddalay

oladigan murakkab amaliyotdir. Ushbu jarayonda neonatologlar, bolalar jarrohi, qon tomir xirurgi, anesteziolog va reanimatologlardan iborat katta jamoa ishtirok etadi. Mazkur amaliyotning bajarilishi tibbiyotimizning yuksak rivojlanish bosqichida ekanligini namoyon qilib, milliy jarrohlikning yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi.

## Rag'bat – soha rivojining kafolati

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan 2026-yil 1-apreldan boshlab davlat tibbiyot muassasalari xodimlari uchun besh kunlik ish haftasi joriy etiladigan bo'ldi. Qolaversa, davlat tibbiyot muassasalarida kamida 3 yil ish stajiga ega xodimlar uchun bepul yuqori texnologik tibbiy yordam, 15 yildan ortiq staji borlar uchun sanatoriya bepul yo'llanma berilishi, davlat xizmatlari uchun to'lovlar ikki barobarga kamaytirilishi ko'zda tutilgani ham tibbiyot xodimlarini moddiy- ma'naviy qo'llab-quvvatlashning chinakam yangi tarixiy sahifasini ochib berdi.

Quvonarlisi, qarorga muvofiq, tuman darajasida yangi davolash usulini joriy etgan davlat shifokorlari

shakllanishi uchun mustahkam poydevor ham yaratiladi.

## Kadrlar tayyorlashda keskin buriilish

Tibbiy ta'limning rivojlanishi – bu sog'liqni saqlash tizimining eng asosiy va uzoq muddatli samara beruvchi yo'nalishidir. Zamonaviy tibbiyot rivoji, avvalo, yuqori malakali shifokorlar, hamshiralar va tibbiy mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki tibbiy xizmat sifati to'g'ridan-to'g'ri uni amalga oshirayotgan kadrlar saviyasiga bog'liq.

Shu bois tibbiy ta'lim har qanday sog'liqni saqlash tizimining asosiy poydevori hisoblanadi. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, tibbiy ta'lim – soha yuragi. Ta'lim yaxshilanmasa, tibbiyot rivojlanmaydi.

Kelgusi o'quv yilidan tibbiyot oliygohlarining bakalavr bosqichida pediatriya va davolash yo'nalishlarini o'z ichiga olgan umumiy tibbiyot fakulteti ochilishi ham tizimdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ularda oilaviy shifokor mutaxassislari bo'yicha rezidentura va magistratura ham yo'lga qo'yiladi.

Tibbiyot texnologiyalari tez o'zgarib borayotgani sababli, tibbiy ta'lim ham yangilanishi kerak. Yaratilayotgan "Yangi oila shifokori instituti" aholiga tez, muntazam tibbiy xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Tibbiy madaniyat, preventiv va prediktiv tibbiyot tamoyillari aholi orasida keng yoyiladi, inson o'zi va oilasining sog'lig'i uchun avvalambor o'zi mas'ul bo'lishi kerakligini tushuntirish orqali profilaktika hamda umumiy salomatlik darajasini ko'taradi.

Tibbiy ta'limga o'quv sifati bahoilash bo'yicha uch bosqichli tizimga o'tilishi tibbiyot oliygohlarining bakalavr bosqichida talabalarning fundamental va klinik fanlar bo'yicha bilim hamda ko'nikmalari oshishini ta'minlaydi. Rezidenturani tugatgan shifokorlar esa ixtisosligi bo'yicha sinovlardan o'tgandan keyingina mutaxassis sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilib, tibbiy faoliyat yuritishga ruxsat beriladi.

Bugun fuqarolar uchun tezkor, shaffof va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatadigan yangi tizim yaratildi. Bu yo'lga jamiyat, davlat hamda tibbiyot xodimlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari katta muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Zero, O'zbekiston tibbiyoti kelajakda inson hayotini oliy qadriyat deb hisoblaydigan, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan, yuqori malakali shifokorlar bilan ta'minlangan, raqobatbardosh va global standartlarga muvofiq milliy tizimga aylanadi.

**Jasur RIZAYEV,**  
**Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori,**  
**professor.**

# FUTBOL XABARLARI

## VODIY JAMOALARIDA MURABBIYLAR O'ZGARDI

O'zbekiston superligasida ishtirok etadigan vodiyning uch jamoasi – "Netfchi", "Navbahor" va "Andijon"ga yangi murabbiylar tayinlandi. E'tiborlisi, har uchala klub ham so'nggi yillarda yurtimiz futbol rivojiga katta hissa qo'shgan shaxslar bilan shartnoma imzoladi.



Amaldagi chempion "Netfchi" O'zbekiston "U-17" terma jamoasini Osiyo chempionligiga yetaklagan va Qatarda uyushtirilgan mundialning nimchorak finaliga olib chiqqan murabbiy Islombek Ismoilov bilan yangi mavsumga tayyorgarlik ko'radi.

O'tgan yili O'zbekiston kubogi sohibi bo'lgan "Andijon" jamoasi esa Samvel Babayanni bosh murabbiylikka taklif etdi. Babayan faoliyati davomida "Paxtakor", "Navbahor", "Spartak" (Latviya), "Lokomotiv", "Chanchun Yatay" (Xitoy) kabi klublarni boshqargan. Shuningdek, O'zbekiston milliy terma jamoasiga ham murabbiylik qilgan.

"Navbahor" esa Timur Kapadze bilan ikki tomonlama kelishuvga erishib, 2026-yilgi O'zbekiston superligasini uning murabbiyligida o'tkazadigan bo'ldi.

## O'TKIR YUSUPOV QAYERDA O'YNAYDI?

O'zbekiston milliy terma jamoasining asosiy darvozaboni O'tkir Yusupov faoliyatini yurtimizda davom ettirishi mumkin.



"Netfchi" va "Andijon"ning asosiy transfer maqsadi bo'lgan milliy terma jamoa yulduzi bilan "Nav-bahor" og'zaki kelishuvga erishgan. Transfer huquqi Eronning "Fulad" jamoasiga tegishli bo'lgan darvozabon hozirgi kunda "CAFA" finalida olgan jarohatini davolash bilan band. Uning eronliklar bilan tuzgan shartnomasi 2026-yil yozida tugaydi. Ma'lumot uchun, O'tkir Yusupov aynan "Navbahor"dan "Fulad"ga o'tgandi.

## OSIYO KUBOGIGA TAYYORGARLIK AVJIDA

O'zbekiston futbol terma jamoasi "Osiyo kubogi – 2026"ga tayyorgarlikni davom ettirmoqda.



Nodir Eliboyev murabbiyligidagi futbolchilarimiz dekabr oyidagi FIFA kunlaridan unumli foydalanib, jahonning eng kuchli jamoalaridan biri – dunyo reytingida 5-o'rindan joy olgan Rossiya terma jamoasiga qarshi ikkita xalqaro o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazadi.

Ikki tomonning kelishuviga ko'ra, o'yinlar Buxoro shahridagi "Universal" sport majmuasida bo'lib o'tadi. 19 va 21-dekabrda rejalashtirilgan bahs uchun tarkibga 18 nafar futbolchi jalb qilingan.

**Sunnatilla ISLOMOV**  
("Xalq so'zi") tayyorladi.



## Intilish

# CHIQINDIDAN ELEKTR QUVVATI

Yaqin paytgacha Namangan viloyatida uzoq muddatga mo'ljallangan chiqindi poligoni yo'qligi va borlarini ham joydan-joyga ko'chirishga to'g'ri kelayotgani muammoga aylangandi. Endilikda Chust tumanining "Zarafshon" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashtirilayotgan ekosanoat zonasi masalaga maqbul yechim bo'ladi.

Bu yerda tanlab olingan 15 gektar maydonning 10 gektarida "Everbright Environmental Energy Namangan" xorijiy korxonasi tomonidan xitoylik investorlar bilan hamkorlikda qiymati 150 mln. dollarlik "Chiqindini yoqish orqali elektr energiya ishlab chiqarish" loyihasi amalga oshirildi.

Kelgusi yilda birinchi navbati bitkazilib, 2027-yilda to'la foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan korxona katta quvvatga

ega. Unda 547,5 ming tonna chiqindini qayta ishlab, 310 mln. kVt-soat elektr energiyasi hosil qilinadi va 254 mln. kVt-soati tarmoqqa uzatiladi. Bu taxminan 300 ming aholining yillik elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojiga teng.

– Yangi loyiha ijrosi bilan bir kunda o'rtacha 1450 tonna, yillik 529,3 ming tonna chiqindini to'plab to'liq qayta ishlash imkoniyati vujudga keladi, – deydi

viloyat ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Qobiljon Mirahmedov. – Dastlabki bosqichda 6 ta tumandan yig'ilgan chiqindilar To'raqo'rg'on tumanidagi qayta yuklash stansiyasiga keltirilib saralanadi va ushbu korxonaga olib kelinadi. Quvvatlar to'la o'zlashtirilgandan so'ng butun viloyat hududi ayni tizim bilan qoplab olinadi.

Viloyatda ekologik muvozanatni yaxshilashga xizmat qiladigan ushbu dolzarb loyihaga start berilgani namanganliklarni mamnun etdi.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**  
("Xalq so'zi").

## 2026-2027-yillarda "HAMROH" xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash kompaniyasi» MCHJ tomonidan 2,8 ming nafar xotin-qiz tadbirkorlikka o'qitiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2030-6788

4772030 678001

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbachi muharrir F. Bozorov.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6